



**JADIDCHILIK HARAKATI FAOLIYATINI O'RGANISH MADANIY
MUHIT HAMDA TA'LIM VA TARBIYA UCHUN DOLZARB VAZIFADIR**

Malikova Dilraxon Maxmudovna

O'zPFITI mustaqil tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11112886>

Annotatsiya. Maqolada Jadidchilik harakati vakillarining ta'lim va tarbiyaviy ishlari pedagogik nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi. Shuningdek, bugungi madaniy muhitimizda, ta'lim-tarbiyamizda ma'rifatparvar ajdodlarimizni o'rganish mezonlariga to'xtaladi.

Kalit so'zlar: jadid, ma'rifatpar, pedagogika, maktab, ta'lim, ziyoli, darslik.

Tarix hamma vaqt har bir xalqning o'ziga xos o'tmishi bo'libgina qolmay, ulkan ta'lim-tarbiya beradigan darsxona hamdir. Jahon tarixida har bir xalqning ko'rgan-kechirganlari tarix qatlariga jam bo'lib, bu insoniyat davri pillapoyalarini, rivojlanishlariyu, evrilishlarini o'zida aks ettiradi. Tarixiy sanalar bizni ajdodlar hayoti bilan aniqroq tanishishimizda, o'rganishimiz hamda yutuq va xatolaridan xulosa qilishimizda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston tarixi jahon tarixida ma'lum bir davrni qamrab olib, har bir davr millatimizning hayotini, ijtimoiy va siyosiy qarashlarini, madaniy va ilmiy izlanishlarini ko'rsatadi. Chunonchi, yaqin o'tmishimizda mamlakatimizning Rossiya imperiyasi tomonidan istilo etilishi, xalqning dunyo tarixi nazdida ko'rinmas darajaga kelishi, millatdoshlarimizning ham ma'nan ham jismonan tobe qilishi bilan bog'liq kechmish o'rganilayotgan, bugun ilmiy hayotda tadqiq qilinayotgan muhim mavzulardan biridir. Jadidchilik harakati ana shunday siyosiy va ijtimoiy jihatdan o'rganilayotgan, tarix zarvaraqlarida dolzarbligini yo'qotmayotgan davrlardan biridir. Mazkur harakat XIX asr oxiri – XX asr boshida faoliyat olib borgan, o'zlarini “Taraqqiyparvar”, “Ziyoli” yoki “Yoshlar” deb atagan ilmiy kishilar jamoasi edi. Bu harakatning yuzaga kelishi, ularning izchillik bilan olib borgan harakati, xalq ongiga kirgan hurlik shabadalari bu kunga qadar ko'plab tarixiy manbaalarda o'z tasdig'ini topgan.

Jadidchilikning o'ziga xoslik jihatlariga nazar solsak, bu harakat serqirra edi. Ya'ni, u milliy, diniy, madaniy va ilmiy qarashlarni o'zida jamlagan, yurtdagi mavjud siyosiy tuzumning xiylayu-nayranglariga, o'zgaruvchanligiga qaramay, maqsadlari yo'lida tinmay harakat qilgan edi. Ular Sharq ham G'arb madaniyati haqida muayyan bilimga ega, diniy ta'lim olgan, ta'lim sohasini yangilash va isloh qilish borasida muayyan tajribaga ega shaxslar tarkibi edi. Jadidlar harakatining pedagogik merosini tadqiq etsak ular yangi usuldagi maktablar, kutubxonalar, qiroatxonalar ochganligini, darsliklar, gazetalar chop etganini, ilk teatr tashkil





etib, birinchi spektakllar namoyish etganligini bilishimiz mumkin. Jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" piesasi o'z vaqtida katta qiziqish bilan qarshi olingan hamda o'z davrining ko'zgusi bo'lganligini, bilimsizlik kishini johillikka olib kelishi mumkinligini hayotiy fojialarda ochib berganligining guvohi bo'lamiz.

Harakat tashkil etgan maktablar mavjud madrasalardan tubdan farq qilib, odatda o'g'il bolalar 10-15 yil faqat Qur'onni yod olgan bo'lsa, jadid maktablari partalar bilan jihozlangan, bu maktablardagi bolalar musulmon maktablaridagi singari yerda o'tirmagan va o'qituvchilar ularning boshi ustida kaltak o'ynatib turmagan. Jadidlar maktablarida kitoblar, keyinchalik esa xaritalar bo'lgan. Ko'rinadiki, hozirgi maktablarning ilk ko'rinishlari o'lkamizda bir asrdan oldingi vaqtda paydo bo'lgan va ularning asoschilari o'zimizning ma'rifatchi Jadidlarimizdir. Albatta, bu kabi islohotlar yurtdagi mavjud diniy ulamo va mullalarning qarshiligiga uchrab turgan. Qarshilarning fikricha, bunday maktablar Yevropa ta'limi va madaniyatini targ'ib qilayotgan, yoshlarni izdan chiqarayotgan deb hisoblangan. Biroq odamlar maktablarda o'qiyotgan yoshlarning ongi va tafakkurida bo'layotgan o'zgarishlarni ko'rib, farzandlarini yangi maktablarga bera boshlashgan. Chunki Jadidlar maktablarini "usul ul-jadid" ya'ni "yangi usul"ni tatbiq qilish va rivojlantirishga qaratilgan edi. Shu o'rinda yangi maktablarda yoshlarga saboq berishda qanday darsliklardan foydalanilgan, degan savol o'rtaga chiqadi. Darsliklarning nashr qilishida Mahmudxo'ja Behbudiy va Munavvarqorining xizmatlarini alohida e'tirof etish kerak. Tabiiyki dastlab darsliklar bo'lmagan. Ismoil Gasprinskiy bu masalada katta yordam ko'rsatgan. Jadidlar so'ngra o'zi darsliklar chop qilishga qaror qilishgan. Munavvarqori va Behbudiy ko'plab darsliklar yozgan. Masalan, "Kitobi avval" yoki matematika, adabiyot, geografiya bo'yicha darsliklar chop etilgan. Sinflarda globuslar turgan. Bu eskilari bilan solishtirganda, butunlay yangilik edi. Shuningdek, mintaqamizdan birinchi marta yoshlar chet elga o'qishga yuborilgan. Bu o'z zamonasi uchun ulkan yangilik bo'lgan. Chunki yangi maktablarda o'qigan yoshlar nari borsa rus tilini bilishgan. Ammo bora-bor ularga boshqa tillarni ham o'rganish singdirilgan. Maxmudxo'ja Behbudiy o'quvchilarga to'rtta tilni bilishi kerakligini ta'kidlagani manbaalarda ko'rsatilgan. Turkiston yoshlari Germaniyaning Haydelberg universitetiga, Rossiyaga va Turkiya davlatiga yuborilgan. Ta'kidlash joizki, bu ishda ma'rifatparvar ajdodlarimizning jasorati katta o'rin tutgan. Afsuski, o'qishga yuborilgan yoshlarning hammasi ham bitira olmagan. Millatning ta'lim olishga bo'lgan qiziqishi, dunyoga chiqishi va alaloqibat hurlik istagi mustamlakachilarni





hushyor torttirgan. Bunday yoshlar doimiy nazorat va siquvda bo'lganlar. Yurtiga qaytgan yoshlarni Jadidchilar kabi og'ir qismat kutib turgan.

Mazkur tarixiy ma'lumotlar ajdodlarimizning ilm va ma'rifatga, ta'limga nechog'lik e'tiborli bo'lganligini, zamonning alg'ov-dalg'ov pallasida ham millat bolalarini o'qitish, dunyoga chiqarish, yangiliklardan boxabar qilish borasida fidoyilik qilganligini ko'rsatadi. Bu bugungi kunda ularning pedagogik merosini didaktik nuqtai-nazardan o'rganishimizga yo'l ochadi. Xususan, faqat bir yoqlama bilim berilgan madrasalardan yangi ko'rinishdagi maktablarda nafaqat o'g'il bolalar balki qizlarning ham ta'lim olishi belgilangan. Jumladan Abdurauf Fitrat o'z asarlarida "Qiz bola ham o'qishi kerakmi?" ("Munozara" asari) degan savolni qo'yadi. Fitratning fikriga ko'ra, ayollar millat egalarining tarbiyachisi. Ularning gardanida ulkan vazifa turibdi. Demak ular erkaklarga nisbatan bilimli bo'lishi kerak. Chunki u bilsa bolasiga o'rgatadi, deb hisoblaydi. Bu ham hozirgi kunimizning eng muhim vazifalaridan ekanligini ko'rsatadi. Garchi bugun qizlarimizning o'qishi uchun barcha imkoniyatlar qilingan bo'lsada, ularning oliy o'quv yurtlarida o'qishni davom ettirishi, ilm qilishi borasida ham imtiyozlar yaratilgan. Bu esa Jadid bobolarimizning orzusini amalga oshayotganligini tasdiqlaydi. Shuningdek, bugungi ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarning joriy qilinishi, iqtidorli yoshlarning davlat grantlari asosida chet ellarga o'qishga yuborilishi, ist'dodli talabalarning qo'llab-quvvatlanishi, ustoz va shogirdchilik an'anasini davom ettirilishi kabi jihatlar o'tmishda ajdodlarimizning harakati va intilishlarini ifodalaydi.

Ayni paytda mazkur harakat ishtirokchilari Munavvarqori, Behbudiy, Cho'lpon, Fitrat, Qodiriy, Avloniy, Fayzulla Xo'jaev, So'fizoda, Shakuriy Tavallo, Zoxiriy, Ibrat, Donish, Saidaziziy kabi ko'plab ma'rifat egalari ijodi va faoliyatini o'rganishga katta e'tibor qilinmoqda. Jumladan, yurtimiz istiqloli va erkinligi, kelajak avlodlarning obod va farovon hayotini ta'minlashga qo'shgan hissasi uchun, "Ma'rifatparvar jadidchilik harakati namoyondalarini mukofotlash to'g'risida"gi O'zbekiston Prezidenti Farmonining (30.09.2020y.) qabul qilinishi ham tariximiz fidoyilariga bo'lgan katta hurmat ramzi bo'ldi, deyish mumkin. Farmonga ko'ra, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonovlarning yorqin xotirasi yod etilib, ular "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlanganligi keng jamoatchilikning xursandchiligiga sabab bo'ldi. Mazkur ezgu ishlarning davomi sifatida 2023 yilda poytaxtimizda "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzuidagi xalqaro ilmiy konferensiya o'tkazildi. Jadidchilarning keng qamrovli faoliyatini o'z ichiga olgan xalqaro yig'inda ishtirokchilar, adabiyotshunos olimlar, xalqro ekspertlar





ularning ilmiy-pedagogik qarashlariga ham katta ahamiyat berilganligi ta'kidlandi.

Har yili oliy o'quv yurtlari va ilmiy tekshirish institutlarida bu mavzuda talay ilmiy izlanishlar olib boriladi. Maqsad bitta, u ham bo'lsa xalqimizning ma'anaviyatini, ma'rifatini, tafakkurini boyitishni o'ylab, fidoyilik ko'rsatgan, qatilom zamonlardan qo'rqmay o'z maqsadidan toymagan ajdodlarimizning faoliyatini chuqur o'rganish va ulardan saboq olishdir.

Ayni paytda mamlakatimizdagi ta'lim muassasalarida Jadidchilik harakati namoyondalarining faoliyati o'rganiladi.

Ularga qo'shimcha ravishda quyidagi tavsiyalarni berib o'tish mumkin.

1. Yuqori sinf o'quvchilari darsligidagi Tarbiya fani tarkibida Jadidchilik harakatini chuqurroq o'rgatish,
 2. Jadidshunoslik ilmi sohiblari, olimlar bilan muntazam ijodiy uchrashuvlar tashkil qilish,
 3. Qatag'on qurbonlari xotira muzeyiga doimiy tashriflarni joriy qilish
- O'quvchi yoshlar uchun maxsus didaktik yo'nalishdagi ma'rifatparvar bobolarimiz hayotini aks ettiradigan multfilmlarni yaratish. Bular madaniy muhitimizda ularning o'rnini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. "Ma'rifatparvar jadidchilik harakati namoyondalarini mukofotlash to'g'risida"gi O'zbekiston Prezidenti Farmoni (30.09.2020y.)
2. "Jadidchilik fenomeni" kitobi. T.f.d.prof. Dilorom Alimova.
3. "Jadidchilik harakatini butun dunyo olimlari o'rganishmoqda" maqola. F.f.d.prof.Bahodir Karim. O'zA rasmiy sayti. 12.12.2023y.
4. "Jadidona ruhiyatli milliy matbuot" F.f.d.prof.Bahodir Karim. Yuz.uz. Rasmiy sayti. 5.06.2023y.
5. "Toshkentda jadid ma'rifatparvarlariga bag'ishlangan maxsus mural yaratildi." Oyina.uz. 25.01.2024.

